



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 265 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhiddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	



OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI

Ermatov Nosir Tohirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: ermatovnosir0@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi Germaniya, Italiya, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlar misolida milliy iqtisodiyotdagi o'ri, aholi daromadlaridagi ulushi hamda ijtimoiy ahamiyati haqida bir qator fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid ayrim islohotlar, uni kengaytirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish bo'yicha mualliflik yondashuvlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik shakllari, iqtisodiy islohotlar, globallasuv, biznes muhiti, xorijiy tajriba, aholi daromadlari.

Abstract: The article presents several viewpoints on the development of family entrepreneurship, highlighting its role in the national economy, its contribution to household income, and its social significance, using examples from countries such as Germany, Italy, the USA, and Japan. The paper also discusses certain reforms implemented in Uzbekistan to support family businesses, current challenges, and the author's approaches to addressing them.

Key words: entrepreneurship, family entrepreneurship, forms of family business, economic reforms, globalization, business environment, foreign experience, household income.

Аннотация: В статье представлены различные мнения о роли, вкладе в доходы населения и социальном значении семейного предпринимательства на примере таких стран, как Германия, Италия, США и Япония. Также освещены некоторые реформы, проводимые в Узбекистане в сфере развития семейного предпринимательства, существующие проблемы и авторские подходы к их решению.

Ключевые слова: предпринимательство, семейное предпринимательство, формы семейного бизнеса, экономические реформы, глобализация, бизнес-среда, зарубежный опыт, доходы населения.

KIRISH

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari ichida keng tarqalgan tadbirkorlik shakllaridan biri bu — oilaviy tadbirkorlik hisoblanadi. Xorijiy tajribalar hamda xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik faoliyati tashkiliy va ma'muriy nuqtai nazardan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, u ishlab chiqarish ta'minoti hamda uni yo'lga qo'yish bilan bog'liq imtiyozlarni taqdim etishi bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi.

Xalqaro miqyosda oilaviy tadbirkorlikning umum qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Biroq, Yevropa mamlakatlarida ma'lumotlar to'plash va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida unga quyidagicha umumiy ta'rif berilgan:¹

Qaror qabul qilish huquqining katta qismi korxonaga asos solgan yoki korxonaga ulushining asosiy qismini sotib olgan jismoniy shaxsga, ularning oila a'zolariga tegishli bo'lishi;

Qaror qabul qilish huquqi aksariyat hollarda bilvosita yoki bevosita shaklda bo'lishi;

Oila yoki qarindoshlarning kamida bitta vakili firmani boshqarishda rasmiy ravishda ishtirok etishi;

Agar firmaga asos solgan yoki uni sotib olgan jismoniy shaxs yoki uning oila a'zolari firmaning kamida 25 foiz ulushiga egalik qilsa, bu subyekt oilaviy biznes deb qaraladi.

Shu sababli, oilaviy tadbirkorlik ko'plab xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotimiz doirasida ayrim xorijiy davlatlarda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va uning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati ilmiy manbalar hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ayrim xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

¹ [Yevropa mamlakatlarida oilaviy tadbirkorlikning kelishilgan ta'rifi.](#)



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlik bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganishda Germaniya, Italiya, AQSH va BAA misolida qator ilmiy va amaliy manbalarga murojaat qilingan. Germaniyada «Mittelstand» modeli asosida kichik va o'rta oilaviy korxonalar iqtisodiyotning tayanch bo'g'inlaridan biri sifatida qaraladi. Bu model Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida keng ommalashgan bo'lib, egallik, yuridik shakl va boshqaruv mezonlari bo'yicha umumiy tasnifga ega.

AQSHda oilaviy biznes yirik kompaniyalar darajasiga ko'tarilgan bo'lib, Family Business Magazine va Forbes kabi nufuzli nashrlar doimiy tahlillar olib boradi. Italiya esa oilaviy korxonalarining milliy YAIMdagi ulushi yuqoriligi bilan ajralib turadi. BAAda esa yuridik soddalik va soliqqa oid yengilliklar oilaviy biznesni tezkor ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradi.

Osiyo taraqqiyot banki institutining 2024-yilgi tahliliy hisobotida moliyaviy savodxonlikning oilaviy tadbirkorlikka ta'siri alohida o'rganilgan. CAREC va ASEAN mamlakatlaridagi solishtirma ko'rsatkichlar asosida, bu omilning korxonalar yashovchanligi va samaradorligiga bevosita ta'siri isbotlangan. Ushbu adabiyotlar asosida xorij tajribasi nafaqat huquqiy-me'yoriy yondashuvlar, balki boshqaruv modeli va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda taqqoslash, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya kabi an'anaviy ilmiy usullardan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlarning normativ-huquqiy bazasi, statistik ko'rsatkichlari va amaliy tajribalari tahlil qilindi. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki instituti tomonidan e'lon qilingan hisobotlar asosida mintaqaviy solishtirma yondashuv qo'llandi. Ma'lumotlar izchillik, ishonchlilik va aktual holatga moslik tamoyillari asosida tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Germaniyada oilaviy tadbirkorlik (biznes) iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Germaniyada oilaviy tadbirkorlik asosan o'rta va yirik qatlamga mansub bo'lib, uni nemislar "Mittelstand" deb atashadi. "Mittelstand" so'zi nemis tilida "o'rta sinf" yoki "o'rta qatlam" degan ma'noni anglatadi. Bu atama asosan Germaniya, Avstriya va Shveysariyada iqtisodiy inqiroz davrida muvaffaqiyatga erishgan barqaror, kichik va o'rta biznesga asoslangan oilaviy tadbirkorlarni tavsiflash uchun ishlatilgan. Odatda bu toifaga yillik o'rtacha aylanmasi 50 million yevrogacha bo'lgan va 500 nafargacha xodimga ega kompaniyalar kiradi.

Germaniyada kichik va o'rta biznesning katta qismi oilaviy tadbirkorlik toifasiga to'g'ri keladi.² Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor tadbirkorlik subyektlarining 90–95 foizini oilaviy biznes subyektlari tashkil etadi. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 55 foizi va ish o'rinlarining 60 foizi oilaviy biznes hissasiga to'g'ri keladi. Shu bois, Germaniya iqtisodiyotida oilaviy tadbirkorlikning o'rni katta ahamiyat kasb etadi.³

Italiyada oilaviy biznes Yevropadagi boshqa davlatlardan o'zining tuzilishi, mazmuni va qadriyatlar bilan ajralib turadi. Xususan, Italiyaning shimoliy viloyatlarida oilaviy tadbirkorlik an'anaviy tarzda rivojlangan bo'lib, ular sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ko'proq ulushga ega.⁴ Tahlillarga ko'ra, Italiyadagi xususiy tadbirkorlik subyektlarining 85 foizga yaqini oilaviy tadbirkorlik shakllaridan iborat. Shuningdek, Italiya YAIMning 70 foizga yaqini oilaviy korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.⁵

AQSHni olaylik, bu davlatda oilaviy biznes Germaniyadagi kabi kichik va o'rta biznesning katta qismini tashkil etadi. AQSH shtatlarida oilaviy korxonalar startaplardan oq yirik korporatsiyalargacha — masalan, Walmartdan tortib Ford kompaniyasigacha bo'lgan oilaviy kompaniyalarni o'z ichiga oladi (1-rasm).⁶

Ma'lumotlarga ko'ra, barcha xususiy biznes subyektlarining 87 foizi oilaviy biznes subyektlari hisoblanadi. Shuningdek, AQSH yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 64 foizi oilaviy biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keladi.

Har yili yaratiladigan yangi ish o'rinlarining 62 foizi ham oilaviy biznes ulushiga to'g'ri keladi. Keltirilgan raqamlar va 1-rasm tahlilidan ko'rinadiki, AQSHda oilaviy tadbirkorlik nafaqat kichik va o'rta, balki yirik korporatsiyalar ko'rinishida ham faoliyat yuritadi.⁷

AQSHda Family Business Magazine hamda Forbes Family-Owned Companies Rankings kabi kompaniyalar oilaviy biznes bilan bog'liq faoliyatni doimiy ravishda turli yo'nalishlarda tahlil qilib boradi va natijalar asosida xulosalar hamda tavsiyalarni muntazam e'lon qiladi (1-jadval).

2 IFM Bonn (Institut für Mittelstandsforschung Bonn), "Family Businesses in Germany", <https://www.ifm-bonn.org>

3 Klein, S. B. Family Business in Germany: Significance and Structure. Family Business Review, Vol. 13(3), pp. 157–181.

4 Corbetta, G., & Salvato, C. (2004). The Board of Directors in Family Firms: One Size Fits All? Family Business Review.

5 Italian Family Firms Research Centre (AUB Observatory), <https://www.aubobservatory.org>

6 Astrachan, J. H., & Shanker, M. C. (2003). Family Businesses' Contribution to the U.S. Economy: A Closer Look. Family Business Review.

7 Family Firm Institute (FFI), <https://www.ffi.org>



1-jadval. AQShda ayrim yetakchi oilaviy biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot.

Kompaniya nomi	Soha	Tashkil etilgan yili	Boshqaruv oilasi	Izoh	Soha
Walmart	Savdo (Retail)	1962	Uolton (Walton)	Uoltonlar dunyodagi eng boy oilalardan biri hisoblanadi.	Savdo (Retail)
Ford Motor Company	Avtomobilsozlik	1903	Ford (Ford)	Genri Ford tomonidan tashkil etilgan.	Avtomobilsozlik
Mars, Inc.	Oziq-ovqat, shirinliklar	1911	Mars (Mars)	M&M's, Snickers, Pedigree kabi brendlar. Hozircha xususiy va oilaviy qolmoqda.	Oziq-ovqat, shirinliklar
Cargill	Agrobiznes, logistika	1865	Kargill va MakMillan (Cargill, MacMillan)	AQShdagi eng yirik xususiy oilaviy kompaniyalardan biri.	Agrobiznes, logistika
Comcast	Media va telekommunikatsiya	1963	Roberts (Roberts)	Asoschisi: Ralf Roberts. Hozir o'g'li Brayen Roberts boshqaradi.	Media va telekommunikatsiya
Estée Lauder	Kosmetika va parfyumeriya	1946	Lauder (Lauder)	Este Lauder tomonidan asos solingan. Oila a'zolari hozirgacha rahbariyatda.	Kosmetika va parfyumeriya
Bechtel	Injiniyering, qurilish	1898	Bechtel (Bechtel)	Dunyodagi eng yirik xususiy injiniyering kompaniyalaridan biri.	Injiniyering, qurilish
Levi Strauss & Co.	Kiyim (jinsi)	1853	Hakimovlar va Berglar oilalari	Leonidas Strauss tomonidan asos solingan.	Kiyim (jinsi)
SC Johnson	Maishiy kimyoviy mahsulotlar	1886	Johnson (Johnson)	"A Family Company" — brendning o'zi oilaviylikni ta'kidlaydi.	Maishiy kimyoviy mahsulotlar
New York Times Company	OAV (nashr va internet)	1851	Sulzberger (Sulzberger)	Gazetaning 4-avlod rahbari — A.G. Sulzberger.	OAV (nashr va internet)

Family Business Magazine hamda Forbes Family-Owned Companies Rankings kompaniyalarining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda AQSHdagi 500 ta yirik oilaviy biznes subyektlari YAIMning 64 foizini, shuningdek, yaratilgan yangi ish o'rinlarining 62 foizini tashkil etgan.

Xorijiy tajribalar hamda ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yigirma yillikda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotini isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta'minlashda oilaviy biznesning hissasi sezilarli darajada ortgan. Shu sababli hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy korxonalar tashkil etadi.

Oilaviy biznesni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklaridan biri — uning ishtirokchilari tomonidan yuqori samaradorlik bilan faoliyat olib borilishi bo'lsa, yana bir muhim jihati — bu biznes shaklining uzoq muddat davom etishidir.

Umuman olganda, oilaviy biznes dunyodagi eng qadimiy tadbirkorlik shakllaridan biri hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda oilaviy biznes tadbirkorlik faoliyatining 70 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Masalan, Ispaniyada faoliyat yuritayotgan barcha korxonalarining 75 foiziga yaqini oilaviy biznes subyektlaridan iborat. Mamlakat YAIMining 65 foizga yaqini esa oilaviy korxonalar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar ulushiga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniyada esa aholining 50 foizi oilaviy biznes bilan shug'ullanadi.

Jahonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini eng samarali yo'lga qo'ygan mamlakatlardan yana biri bu — Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) hisoblanadi. BAAda oilaviy biznes sifatida ro'yxatdan o'tish jarayoni nihoyatda sodda va soddalashtirilgan bo'lib, boshqa davlatlarga nisbatan huquqiy va ma'muriy cheklolar ancha kam.

Ko'plab xorijiy mamlakatlarda biznes subyekti oilaviy biznes sifatida tan olinishi uchun uning ma'lum bir qismini bitta oila egalik qilsa kifoya qiladi. O'zbekistonda esa tadbirkorlik subyekti oilaviy tadbirkorlik sifatida e'tirof etilishi uchun ushbu subyektning 100 foiz ulushi bir oilaga tegishli bo'lishi lozim (2-jadval).

2-jadval. Ayrim xorijiy mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari⁸


Faktorlar	Yevropa mamlakatlaridagi xususiyatlari	BAA'dagi xususiyatlari	Germaniyadagi xususiyatlari
Nomlanishi	Oilaviy biznes	Oilaviy biznes	Oilaviy tadbirkorlik (oilaviy korxon)
Egalik shakli	Egalikning kamida 25 % qismi ta'sischi'larga yoki ularning qarindoshlariga tegishli	Egalikning eng katta qismi ta'sischi'larga yoki ularning qarindoshlariga tegishli	Egalikning 100 % qismi ta'sischi'larga yoki ularning qarindoshlariga tegishli
Yuridik shakli	Yevropa Ittifoqi darajasida belgilangan cheklov mavjud emas	"Aksiyadorlik jamiyati", "shariklik kompaniyasi" dan tashqari istalgan ko'rinishda ro'yxatdan o'tishi mumkin	Faqat "oilaviy korxon" yoki "oilaviy tadbirkor" sifatida ro'yxatdan o'tishi mumkin
Holati	Siyosiy va ijtimoiy muhokamalarda kichik va o'rta biznes vakillari tushuniladi, lekin oilaviy bizneslarning yiriklashuvi ham kuzatiladi	Kichik, o'rta va yirik tadbirkorlik subyekti sifatida bo'lishi mumkin	Faqat kichik biznes shaklida faoliyat yuritadi
Ishchilar soni	Chegara mavjud emas	Chegara mavjud emas	Qonun hujjatlariga muvofiq kichik biznes subyektlari xodimlarining belgilangan sonidan oshmasligi kerak
Faoliyat turi	Yuridik jihatdan faoliyat shakli cheklanmagan	Yuridik jihatdan faoliyat shakli cheklanmagan	Oilaviy korxon aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishi va yer qaridan foydalanlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishi mumkin emas

Boshqa tadbirkorlik shakllari qatori, oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatiga ham turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyatini va tijorat operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkordan sohaga oid bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlik faoliyatining davomiyligi va kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Osiyo taraqqiyot banki instituti tomonidan 2024-yil aprel oyida e'lon qilingan tadqiqotda Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligining (CAREC) o'nta davlati hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasining (ASEAN) yettita mamlakatida oilaviy tadbirkorlikka moliyaviy savodxonlik darajasining ta'siri o'rganilgan.

Mazkur tadqiqot doirasida Osiyo taraqqiyot banki instituti tomonidan birinchi navbatda oilaviy tadbirkorlik subyektlari egalari orasida moliyaviy savodxonlik darajasi tahlil qilingan. Telefon suhbat shaklida o'tkazilgan so'rovnoma 17 ta mamlakatni qamrab olib, har bir mamlakatdan kamida 1000 ta uy xo'jaligi ishtirok etgan. Shulardan oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi 3007 ta uy xo'jaligi ma'lumotlari asosida mazkur tadqiqot tayyorlangan.

⁸ Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oilaviy bizneslar federatsiyalari assotsiatsiyasi, BAA "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi 2022-yildagi 37-sonli Federal qarori.



1-rasm. Mamlakatlar bo'yicha oilaviy biznes egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi⁹

So'rovnomaga ASEAN mamlakatlarida 2022-yilning yanvar–mart oylarida, CAREC mamlakatlarida esa 2022-yilning sentabr–oktyabr oylarida o'tkazilgan.

Tadbirkorlar orasidagi moliyaviy savodxonlikni baholashda moliyaviy bilim, moliyaviy xulq-atvor (moliyaviy xatti-harakat) va moliyaviy munosabat kabi uchta ko'rsatkichdan foydalanilgan. Umumiy maksimal ball 17 ballni tashkil qilgan. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlarning o'rtacha moliyaviy savodxonlik darajasi 8 ballni tashkil qilgan (1-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi oilaviy tadbirkorlik egalari moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondagi hamda ayrim ASEAN mamlakatlaridagi tadbirkorlarning ko'rsatkichidan pastroq natijani qayd etgan. Shu bilan birga, bu ko'rsatkich Turkmaniston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Gruzziya, Filippin va Pokiston kabi davlatlar ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan.

Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, mamlakatimizda aholi qatlamlarining barchasida moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Jamiyat qanchalik moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan savodli bo'lsa, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijasida rivojlangan xorijiy davlatlardagi oilaviy tadbirkorlik va oilaviy korxonalarining bugungi holati o'rganildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba, oilaviy tadbirkorlik tushunchasi va ushbu atamaga oid ilmiy manbalar chuqur tahlil qilindi. Bundan tashqari, oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi faoliyati hamda ularning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, bir qator xulosalar ishlab chiqildi. Jumladan, xorijiy tajriba asosida O'zbekistonda ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish mexanizmini soddalashtirish tavsiya etiladi. Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni rasmiylashtirishda jarayonni to'liq raqamlashtirish va shu bilan birga yagona elektron platforma faoliyatining samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Oilakredit.uz elektron platformasi orqali aholining o'zini o'zi band qilish maqsadida ajratiladigan kreditlarni belgilangan mezonlar asosida skorink baholash natijalariga ko'ra to'liq avtomatlashtirish zarur. Yil sayin ro'yxatdan o'tayotgan oilaviy korxonalar soni ortib borayotganiga qaramay, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni so'nggi yillarda keskin kamaymoqda. Shu bois, yangi tashkil etilayotgan korxonalar "yashovchanlik davri"ni uzaytirish bilan birga ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish ham dolzarb masalalardan biridir. Osiyo taraqqiyot banki instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlanayotgan post-sovet davlatlarida oilaviy tadbirkorlik egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan past, xususan maksimal 17 balldan 8 ball yoki 47 foizni tashkil etgan. Bu holat oilaviy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda nafaqat oilaviy tadbirkorlik subyektlari, balki boshqa shakldagi tadbirkorlik subyektlari uchun ham moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

⁹ Osiyo taraqqiyot banki institutining hisoboti.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Klein, S. B. Family Business in Germany: Significance and Structure. *Family Business Review*, Vol. 13(3), pp. 157–181.
2. Corbetta, G., & Salvato, C. (2004). The Board of Directors in Family Firms: One Size Fits All? *Family Business Review*.
3. Italian Family Firms Research Centre (AUB Observatory), <https://www.aubobservatory.org>
4. Astrachan, J. H., & Shanker, M. C. (2003). Family Businesses' Contribution to the U.S. Economy: A Closer Look. *Family Business Review*.
5. Family Firm Institute (FFI), <https://www.ffi.org>
6. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oilaviy bizneslar federatsiyalari assotsiatsiyasi, BAA "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi 2022-yildagi 37-sonli Federal qarori.
7. Osiyo taraqqiyot banki institutining hisoboti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
